

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444**
Том 2, Выпуск 12, 31 Декабрь

**DANAK MEVALI DARAXTLARNING MONILIOZ KASALLIGI
BILAN ZARARLANISHI**

Matyakubova Yulduzzon Amanbayevna

UrdU, Biologiya kafedrasi dotsent

Aminboyeva Barno Otabek qizi

UrDU, 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Danakli mevalar daraxtlarda monilioz kasalligini dunyo bo'yicha tarqalishi, Ra'nodoshlar oilasiga mansub turlarning qo'zg'atuvchilar biologiyasi, rivojlanishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: monilioz, klyasterosporioz, danakli meva, diksomitset, konidiya.

Danak mevali daraxtlarning monilioz kasalligi dunyoning barcha mamlakatlarida, jumladan Markaziy Osiyo davlatlarida kam tarqalgan. O'zbekistonda monilioz (klyasterosporioz bilan birga) o'rikning eng zararli ikkita kasalligidan birisi hisoblanadi. Urug' va danak mevali daraxtlarda *M.fructigena* qo'zg'atadigan Yevroosiyo moniliozi O'zbekistonda va Markaziy Osyoning boshqa mamlakatlarida hamda Qozog'istonda juda kam tarqalgan, yoki bu haqda yetarli hujjalangan va mikologik molekulyar tadqiqotlarning natijalari bilan isbotlangan xabarlar mavjud emas.

Daraxtlarning novdalari, gullari va mevalari zararlanadi. Bahorda zararlangan daraxtlarning meva hosil qiluvchi shoxlari va novdalari hamda gullari qo'ng'ir tus oladi va qurib qoladi. Ular kuyganga o'xshab qolganligi uchun monilioz kuyish nomini olgan. O'simlikning zararlangan qismlaridan anchasi kelgusi bahorgacha daraxtlarda osilib qoladi. Bahorda o'rik gullah vaqtida, sernam va salqin ob-havoda ularning ustida mitseliy va konidiyalardan tashkil topgan och-kulrang yostiqchalar rivojlanadi.

Ra'nodoshlar (*Rosaceae*) oilasiga mansub bo'lgan mevali daraxtlarda monilioz qo'zg'atuvshi asosiy turlar diksomitsetlarga kiradi. Aksariyat mutaxassislar Monilinia laxa va *M.fructigena* ma'lum. Bu turlar ko'p va har xil daraxt hamda butalarni zararlaydigan polifaglardir. *M.frusticola* turi ilgari faqat Shimoliy, Janubiy Amerika, Avstraliya va Yangi Zelandiyada uchragan, ammo keyingi yillarda Yevropa mamlakatlariga kirgan (ERRO, 2002). Har uch tur xo'jayin o'simliklarda bir-biriga yaqin kasallik belgilarini-alohida gullar va to'pgullar chirishi, novdalarda

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444
Том 2, Выпуск 12, 31 Декабрь

va shoxlarda yaralar paydo bo'lishi va ular nobud bo'lishi (kuydirgi), mevalar qo'ng'ir chirishini hosil qiladi.

Bahorda ularning apotetsiyalari qishlagan, mumiyolashgan mevalardan o'sib chiqadi va askosporalari daraxtlarni birlamchi zararlaydi. Sporalar daraxtlarni faqat qisqa davr ishida to'qimalari yosh bo'lган paytda zararlay oladi. Zararlangan o'simliklarda bu turlarning konidiyalari hosil bo'ladi va gullarga tushib, ularni zararlaydi. Konidiyalarning yashash davri qisqa, bu belgi bilan ham ushbu sektsiya turlari diksomitset turlaridan keskin farq qiladi, chunki keyingilarning apotetsiyalari tabiiy sharoitda hosil bo'lmaydi yoki juda kam uchraydi, konidiyalari esa muntazam, ko'p marta va katta miqdorlarda hosil bo'ladi. O'zbekistonda faqat bir tur behida monilioz qo'zg'atuvshi *Monilinia linhartiana* konidial bosqishida qayd etilgan.

Monilinia kusanoi-Yaponiya va Koreyada gilos, yapon o'rige, oddiy olcha, gullaydigan manzarali va yovvoyi olcha turlarining barglari, yosh, yashil mevalari moniliyal chirishini qo'zg'atadi; bu tur zararli fitopatogen turlar qatoriga kirmaydi.

Monilinia linhartiana-ba'zi adabiyot manbaalarida *M.sydoniae* nomi *M.linhartiana* turining sinonimi sifatida ko'rsatilgan. Ushbu tur qo'zg'atadigan monilioz dunyoning behi o'stiriladigan aksariyat mamlakatlarida eng keng tarqalgan, iqtisodiy jihatdan muhim va o'ta xavfli kasalligidir. Bu turdan tashqari behi *Monilinia fructicola*, *M.fructigena* va *M.laxa* turlari bilan ham zararlanadi. Ba'zi mamlakatlarda, masalan, Serbiyada 2010 yili bir qator behi bog'larida moniliozning yagona qo'zg'atuvshisi *M.fructigena* bo'lganligi aniqlangan.

Monilinia fructigena. MDHda ushbu kasallik qayd etilgan mamlakatlar qatoriga Azarbajxon, Armaniston, Belorussiya, Gruziya, Qozog'istonning Alma-Ata viloyati, Rossiyaning shimoliy-g'arbiy, markaziy viloyatlari, Ural tog'larining janubi, Oltoy, Sibir, Shimoliy Kavkazning g'arbi va ba'zi boshqalar kiradi.

M.fructigena namsevar bo'lib, uning rivojlanishiga, ayniqsa bahorda, daraxtlar o'sishni yangilayotgan davrda, yomg'ir, tuman va shudringlar qulaylik yaratadi. Iqlimi quruq mintaqalarda zamburug' kam ushraydi. Patogen ushun optimal harorat 20-25°C. Birlamchi zararlanishlarning asosiy manbai konidiyalardir. *M.fructigena* ham urug' mevali, ham danak mevali daraxtlarni zararlaydi, ammo ko'proq urug' mevalilarda uchraydi. Monilioz dunyoda olma, nok va olxo'rining xavfli va keng tarqalgan kasalligi bo'lib, ko'p hosil yo'qotilishiga olib keladi. Zarari ayniqsa iliq, seryomg'ir mavsumlarda ko'p bo'ladi. Kasallikka qarshi shaftoli daraxtlariga tarkibida mis mavjud bo'lgan fungitsid bilan ishlov berish faqat kurtaklar

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444**
Том 2, Выпуск 12, 31 Декабрь

yozilishidan oldin o'tkazilishi mumkin, aks holda bu preparatlar shaftoli barglari sarg'ayishi va to'kilishiga olib keladi.

Danakli mevali daraxtlarning monilioz kasalligi dunyoning barcha mamlakatlarida, jumladan Markaziy Osiyo davlatlarida kam tarqalgan. O'zbekistonda monilioz (klyasterosporioz bilan birga) o'rrikning ikkita eng zararli kasalliklaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Йўлдошева Д. Ж. Гулмуродова Ш.Д.Бурхонова Г.М. “Clasterosporium carpophilum ва Monilia cinerea замбуруғларини ўсишига ҳароратни таъсири” Volume 3 | Special Conference 1 2022
2. Хасанов Б.О., Очилов Р., Холмурадов Е.А. “Мевали ва ёнгок мевали даражтлар, цитрус, резавор мевали буталар ҳамда ток касалликлари ва уларга карши кураш”. Тошкент-2010.
3. Хўжаев Ш.Т. “Ўсимликларни зааркунандалардан уйғунлашган химоя қилиш, ҳамда агротоксикология асослари”, Тошкент, 2014 540 б.